



## BO'LG'USI JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Saparova K.B

*Annotatsiya: Mazkur tezisda bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilarida madaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining o'ziga xis xususiyatlari bayon etilgan*

*Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sport, yosh o'qituvchi, ijtimoiy madaniy kompetentlik, ta'lim*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-sonli Qarorida "...jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarini ilmiy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda sport maktablarini yuqori malakali murabbiylar va tibbiyot xodimlari bilan ta'minlash" kabi juda jiddiy vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019 yil 27 avgustdagi PF-5789-son "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi PQ-3031-son "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-sonli "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa ushbu sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim jarayonini takomillashtirishga doir belgilab berilgan vazifalarni hal etishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Yosh o'qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimi uchun bo'lajak yosh o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan [. Bu borada aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish



muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga pedagog - psixolog tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 4 июлдаги 355-сон “Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.07.2022 й., 09/22/355/0589-сон).

2. Бегимкулов З.А. Спорт турлари бўйича тренер-ўқитувчиларнинг ижтимоий-маданий компетентлигини ривожлантиришда малака ошириш жараёнидан фойдаланиш. “Олимпия спортида замонавий илм-фан” Халқаро илмий-амалий онлайн анжуман тўплами. – Т.: Илмий техника ахбороти-press nashriyoti, 2022. 71-бет.

3. <https://lex.uz>

4. <https://yandex.uz>